

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**O'ZBEKISTON MILLIY BOG` VA QO`RIQXONALARIDA TURIZM SALOHIYATINI  
OSHIRISH.**

**Mehriddinova Mehriniso Otabekovna**

*Buxoro viloyati G`ijduvon tumani*

*1-umumiy o`rta ta`lim maktabining geografiya fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O`zbekiston dagi qo`riqxonalar, milliy bog`larda turizm va turistik ahamiyatini oshirish to`g`risida yozilgan.

**Kalit so`zlar:** qo`riqxonalar, milliy bog`, qizil kitob, to`qayzorlar shifobaxsh joylar, rekreatsiya zonasi, Zarafshon milliy tabiat bog`I, tog` buloqlari, turizm.

Yurtimizda, shifobaxsh xususiyatlari bebafo, inson qo`li tegmagan tabiatning ajoyib vodiylari mavjud. Sof tabiat har qanday shifokordan ham yaxshiroq davolaydi. Tog` buloqlari va zich archa o`rmonlari, to`qayzorlar va shaffof ko`llarning qadri nimada? Bunday joylarni ko`z qorachig`idek asrash kerak, va bizning davlatimiz boshqa narsalar qatori Milliy bog`lar va qo`riqxonalar yaratish orqali xuddi shu ishlarni amalgam shirmoqda. Bunday parklardan biri - Zarafshon milliy tabiiy parkidir. U o`zining beg`ubor o`rmonlari va tog` bo`yidagi o`simgiliklari, biologik xilma-xilligi va tabiiy sharoitlari bilan mashhur.



Park, 1975 - yilda Samarqand viloyatining janubiy-shraqida, Zarafshon daryosining o`ng qirg`og`i bo`ylab tashkil etilgan. Uning maydoni ikki ming hektardan ortiq erni egallaydi.

Park hududi, tor chiziq kabi daryo bo`ylab, 46 km. uzunlikda yoyilgan. Parkni tashkil etishdan asosiy maqsad noyob florani inson qo`li tegmagan holda saqlab qolish edi. Hududining kichikligiga qaramay, bu erda to`qaydan tashqari, tol, terak, yulg`un,

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

chakanda, qamish, qizilmiya, supurgi, jiyda va boshqa ko‘p mevali daraxtlar ham o‘sadi. Zarafshon qo‘riqxonasi – chakanda o‘simligi tog‘li hududda emas, tekislikda o‘sadigan yagona joydir.

Bog`ning hayvonot olami ham juda boy, u yerda 80 dan ortiq hasharotlar, 20 dan ortiq mollyuskalar, 240 dan ortiq umurtqali hayvonlar qayd etilgan. Dasht toshbaqasi, qumilon, botqoq qurbaqasi, o‘qilon u yerning doimiy yashovchilaridir. Bu erda qushlarning 207 turi va sutevizuvchilarning 24 turi, shu jumladan cho‘chqalar, tulkilar, qarsoq, ondatra, dasht mushuklari ham mavjud. 2000 yilda qo‘riqxona hududiga Buxoro kiyiklarini joylashtirishga harakat qilindi.



Zarafshon parki yilning istalgan vaqtida ham go‘zal. Bahorda u gullar ufori va mo‘l-ko‘l yashilliklar bilan to‘lgan, sentyabr-oktyabr oylarida o‘rmonlar kuz ranglariga botadi. Qishda, qor ostida terak bog‘lari va katta oq tollar kishiga ayniqsa zavq beradi.

Mamlakatimizning tabiati o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va bunga misol, Zarafshon parki - saqlanib qolgan noyob tabiiy majmua - katta yer hududi va suv havzasi.

Hisor davlat qo‘riqxonasi hududida umurtqali xayvonlarning 276 turi uchrashi aniklangan. Shu jumladan:

Sut emizuvchilar sinfi – 32 tur;

Qushlar sinfi - 225 tur;

Sudralib yuruvchilar sinfi - 17 tur;

Suvda va quruqlikda yashovchilar sinfi – 2 tur.

Baliqlar sinfi - 2 tur;

Jami umurtqalilar – 276 tur

Noyob hayvon turlari soni: 17 tur. – shundan,

Sut emizuvchilar sinfi – 6 tur;

Qushlar sinfi - 7 tur;

Sudralib yuruvchilar sinfi - 3 tur;

Baliqlar sinfi – 1 tur.

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob hayvon turlari

Ilvirs (qor qoploni)

Yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalgan tur. TMXI Qizil Ro‘yxatiga kiritilgan. Tog‘larning o‘rta va yuqori (d.s.b. 2500-4500 m) qismlarida yashaydi. So‘nggi un yilliklar davomida soni uzluksiz kamaymoqda. 1980-1990- yillarda Hisor qo‘riqxonasida 5-11, 1970-1980- yillarda Chotqol qo‘riqxonasida - 1-3 donasi hisobga olingan. Hozirda jami, taxminan 40-50 donani tashkil etadi. 2020 yil o‘tkazilgan hayvonot dunyosi sanog‘i davrida Hisor davlat qo‘riqxonasida 32 bosh qor qoploni qayd etilgan. Asosan Qizilsuv va Tanxozdaryo hududlarida ko‘p uchratiladi. Qo‘riqxonada qor qoploning hayot tarzini o‘rganish va muhofaza qilish masalasiga doir ilmiytadqiqotlar olib borilmoqda.

**Qo‘riqxonaning turizm salohiyatini rivojlantirish rejaları**

Tashrif markazini ekoturistik ob’ekt sifatida shakllantirish va markazni zamonaviy ekoaxborot texnologiyalari bilan jihozlash. Turizm infrastrukturasini zamonaviy talablar asosida shakllantirish. Ekoturistik marshrutlar (piyoda va otda) tashkil etish va ularni havfsizlik nuqtai-nazaridan jihozlanishini ta’minalash. Shu jumladan, Hazrati Sulton ota ziyoratgohi va Amir Temur g‘origa chiqadigan sayyoohlar uchun otda sayohat xizmatini tashkil qilish. Ekoturizmga doir ekotarg‘ibot ishlarini amalga oshirish, ya’ni qo‘riqxonaning tabiatni va faoliyatiga doir reklama banerlarini keng miqyosda aholi ko‘p tashrif buyuradigan joylarda (parklar, avtomobil va temiryo‘l vokzallarida, aeroport va boshqalar) joylashtirish. Ekotarg‘ibotga doir ma’lumotnomalar, risolalar, fotojamlanmalar, videolavhalar va boshqalarni tayyorlash hamda ommaboplashtirish. Veb-saytning ma’lumotdorligini oshirish hamda uning ommaboplígiga erishish. Suvtushar sharsharasida sayyoxlardan kichik zoopark yoki pitomnik tashkil etish. Kam ta’minlangan aholi qatlami, o‘quvchilar, keksa yoshdagagi tashrif buyuruvchilar uchun imtiyozlar joriy qilish. Ekoturizm sohasiga mehnatda band bo‘lmagan aholini jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Qo‘riqxonaning ekotarg‘ibot ishlariga doir rejaları Muxofaza etiladigan tabiiy hududlar va u yerdagi bioxilma-xillikni asrab-avaylashga doir qo‘riqxona xodimlari tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali hamda mahallalar aholisi bilan muntazam ekologik targ‘ibot sohasidagi tadbirlar ko‘lamini kengaytirish. Ekotarg‘ibot ishlarini mahalla faollari, OAV, ta’lim maskanlari, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish. “Hisor davlat qo‘riqxonasi” nomli o‘simgilik va hayvonot dunyosi tug‘risidagi fotoal‘bomni kengaytirilgan qo‘srimcha yangi ma’lumotlar bilan

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

boyitilgan variantini tayyorlash (o‘zbek, rus va ingliz tillarida). Hisor davlat qo‘riqxonasidagi o‘simgilik va hayvonot olami to‘g‘risidagi ma’lumotlarni maktab uquvchilari uchun o‘quv dasturlarini kiritish maqsadida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim va Xalq ta’lim vazirliklarining hamkorligini yo‘lga qo‘yish. Qo‘riqxona tabiiy majmualari to‘g‘risida aholining turli yosh qatlamlarini hisobga olgan holda tayyorlangan buklet, risola va boshqa ma’lumot manbalari hamda tarqatma materiallarning ommabopligiga erishishish. Hisor davlat qo‘riqxonasi flora va faunasi, ekoturistik salohiyati hamda boshqa maqsadlarga muljallangan videolavhalar tayyorlash va namoyish etilishini ta’minalash. “Qor qoplon” to‘g‘risida multfilm yaratish uch tilda. Ekotarg‘ibot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini muvafaqqiyatli qo‘llanilishini ta’minalash.

Qo‘riqxonaning qo‘riqlov va ilmiy bo‘lim xodimlarini malakasini oshirish hamda salohiyatli ilmiy xodimlar bilan ta’minalanganlikka erishish. O‘zbekiston Respublikasi FA Botanika va Zoologiya ilmiy tekshirish instituti, O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshket Davlat Agrar Universiteti, Samarqand Davlat Universiteti, Qarshi Davlat Universiteti va boshqa ilmiy salohiyatga ega muassasalar bilan hamkorligida ilmiy izlanishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish. Qo‘riqlash va ilmiy bo‘lim xodimlarini respublikamiz hududidagi qo‘riqxonalar bilan tajriba almashuvi va o‘zaro hamkorligini ta’minalash. Dolzarb ilmiy mavzularda tadqiqotlarni amalga oshirish va muhofaza qilishga doir tavsiyanomalar ishlab chiqish.Qo‘riqxona ilmiy faoliyatga doir maqolalarni respublikamizda va chet ellardagi nufuzli ilmiy jurnal va konferentsiyalarga taqdim etish. Grant mablag‘larining ajratilishiga erishish va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish. Ilmiy-tadqiqot ishlarining moddiy-texnik jihatdan ta’minalishiga erishish va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi. Xalqaro aloqalarni rivojlantirish va qo‘riqxonaning ilmiy nufuzini xalqaro darajaga ko‘tarish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. H. H Hasanov tabiiy geografiya 1998.
2. S. V. Kalasnik ekonomik geografiya M. Misli 1992.
3. A. Qayumov , I. Safarov, M. Tillaboyeva O‘rta Osiyo geografiyasi 2014.
4. <https://google book.uz>
5. <https://google.com/cluster.html>.